

## PARALINGVISTIK VOSITALARNING VERBALLASHUVI

**Jo'rayeva Shohsanam Alisherjon qizi**

*NamDu Lingvistika yo'nalishi*

*Ikkinchi bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada, birinchidan, noverbal vositalarning matnda verballashuvi, ikkinchidan, verbal matnning noverballashuvi, uchinchidan, badiiy matnda verballashgan noverbal vositalarning poetik funksiyalariga asosiy e'tibor qaratishni nazarda tutamiz.*

**Аннотация:** *В статье мы намерены сосредоточить внимание на вербализации невербальных средств в тексте, во-вторых, на невербализации вербального текста, в-третьих, на поэтических функциях вербальных невербальных средств в художественном тексте.*

**Annotation:** *V state my intentions focus on vnimanie na verbalizatsii nonverbalnyx sredstv v tekste, vo-vtoryx, na neverbalizatsii verbalnogo teksta, v-tretix, na poeticheskix funktsiyx verbalnyx nonverbalnyx sredstv v godojestvennom tekste.*

**Kalit so'zlar:** *paralingvistika, paralingvistik vositalar, imo-ishoralar, verbal tasvir, noverbal ma'no, paralingvistik vositalaning poetik xususiyati.*

**Ключевые слова:** *паралингвистика, паралингвистические средства, жесты, вербальный образ, невербальное значение, поэтичность паралингвистических средств.*

**Key words:** *paralinguistics, paralinguistic means, gestures, verbal image, nonverbal meaning, poetics of paralinguistic means.*

So'nggi yillarda tilshunoslik sohasida yangicha yo'nalishlarda qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunday izlanishlar ko'lamining kengligi o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari g'oyatda rang-barangligini ko'rsatadi. Ayni paytda tadqiqotlarda til dalillariga turlicha nuqtai nazardan yondashuv tendensiyalari kuzatilmoqda. Shu yo'nalishlardan biri paralingvistikadir.

Paralingvistika yo'nalishining rivoji dunyo tilshunosligida G.V.Kolshanskiy, T.M.Nikolayeva, BA.Uspenskiy, I.N.Gorelov, G.E.Kreydlin, M.L.Butovskaya o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Mamajonov, Sh.Safarov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, D.Lutfullayeva, M.Hakimov, D.Xudoyberganova, M.Saidxonov, N.Yuldashev, B.Ahmedov kabi olimlarning qarashlarida o'z ifodasini topmoqda.

Tilshunoslikda A.Nurmonov o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib paralingvistika sohasiga asos soldi. U o'zbek paralingvistik vositalari paralingvistikaning o'rganish obyekti, paralingvistik belgilar va til strukturasi, lingvistik va paralingvistik belgilar munosabati, imo-ishoralarning kelib chiqishi, imo-ishoralar va ishora fe'llari, inkor ifodalovchi paralingvistik vositalar hamda nutqda imo-ishoralardan foydalanish ehtiyoji kabi masalalarning konseptual asosini yaratdi.

M.Saidxonov “Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi” nomli dissertatsiyasida masalaga somatik aspektda yondashadi. N.Yo‘ldashev “Paralingvistika” nomli o‘quv qo‘llanmasida noverbal vositalarni ingliz tili materiallari asosida tadqiq qiladi. B.R.Ahmedov “Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi” nomli izlanishida muammoga genderologik aspekt nuqtai nazaridan to‘xtaladi. Bu izlanishlar an’anaviy tilshunoslik yutuqlariga tayangan holda olib borildi

Paralingvistika. Tilshunoslikning o‘zaro aloqa aralashuvida imo-ishora, mimika nutq vaziyati kabi omillarni o‘rganuvchi sohasi. Paralingvistik vositalar ko‘pincha nutq vaziyatida ro‘yobga chiqadi. Misol uchun *Navoiy el foydasi uchun davlat manfaati uchun bo‘lgan bu vazifaga, o‘z odati bo‘yicha, e’tiroz qilmadi. Yengil ta‘zim bilan o‘z roziligini bildirib, tabassum qildi.* (Oybek “Navoiy”romani) Bu gapda rozilik belgisi sifatida ta‘zim qilinyapti.

Paralingvistik vositalar har bir kishilik jamiyatida kommunikatsiyada tabiiy ravishda nutqni kuzatib boruvchi va to‘ldirib keluvchi ikkilamchi vosita bo‘lgan. Paralingvistika nutqiy muloqot bilan birga fikr, xabar, maqsadni ifodalashda qatnashuvchi imo-ishora, ohang, mimika, gavda harakatlari kabi vositalarni o‘rganadigan soha hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda, nutqiy muloqotda ishtirok etuvchi va ma‘lum mazmun ifodalashga qaratilgan barcha badan harakatlari, yuz ifodalari, ohang elementlari (tovushning toni, balandligi, intonatsiya) va ekstralingvistik vositalar (yo‘talish, xo‘rsinish, kulish, yig‘lash)ni paralingvistika tarkibiga kiritganmiz.<sup>1</sup> Biz ham shu fikrlarga tayangan holda, yuz harakatlari va ular orqali bildirilgan so‘z birikmalari va gaplar, imo-ishora mimika hamda tana harakatlarini paralingvistikaning bir bo‘g‘ini deb hisoblaymiz.

Paralingvistik vositalar sharoitga qarab nutqni ma‘lum me‘yorga keltirish, xususan, ixchamlashtirish, adresantning maqsadini aniq ifodalash vazifasini bajaradi. Biror ma‘noni aniqroq ochish, maqsadni ifodalash vaqtida ko‘pincha aytilishi lozim bo‘lmagan “ortiqcha” til birliklari uchraydiki, mana shu til birliklarining qisqarishi evaziga nutqiy muloqotda shu kontekst uchun ularga mos, to‘g‘ri keladigan, aynan bir xil ma‘no anglatadigan ekstralingvistik vositalar kiritilishi lozim bo‘ladi. Kommunikatsiyaga tegishli zarur talab natijasida nutqiy ifodalar ortiqchaligini qisqartirishga yordam beradi.

Muloqot ko‘p hollarda verbal, ya‘ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz – noverbal (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) vosita orqali axborot berish bilan bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta‘siriga ko‘ra verbal va noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi. Misol uchun har birimiz ma‘lum bir ish bilan yo‘l mashinalaridan (aftobus, mikro aftobus, yengil turdagi mashinalar va hokoza) foydalanamiz. Mashinaga chiqishimiz kerak hudud katta gapirishning iloji yo‘q o‘z-o‘zidan biz paralingvistikaga murojat qilamiz. Ya‘ni qo‘limizni ohista yuqoriga

<sup>1</sup> B.R.Ahmedov “Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi”

ko'taramiz. Bu to'xtang ishorasini bildiradi. Agarda mashinada joy bo'lsa haydovchi to'xtaydi. Lekin joy bo'lmasachi? Ikkinchi adresant ham paralingvistikaga murojat qiladi. Boshini o'ngga va chapga silkitadi. Bu mashinada bo'sh joy yo'q ekanligini bildiradi. Agarda shu ishora bo'lmaganda haydovchi mashinani to'xtatishi vaziyatni yo'lovchiga tushintirishi va yana yo'lda davom etishi kerak bo'lar edi. Ko'rib turganinggizdek paralingvistik vositalar hayotimizda so'zlarni qisqarishiga va ixchamlikka undaydi.

So'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqot jarayoni birgina lisoniy sistema elementlarining o'zi bilangina ifodalanib qolmay, balki fikr almashish, axborot uzatishga xizmat qiluvchi tilga yondosh nolisoniy birliklar bilan ham amalga oshiriladi. Bu esa axborotlarning to'liq va mukammal bo'lishi hamda to'g'ri idrok qilinishiga xizmat qiladi. Ifoda vositalarining rang-barangligi so'zlashuvchilar nazarda tutgan kommunikativ maqsad yoki axborotnigina ifodalamaydi. Nutq ishtirokchilari muloqot jarayonida foydalanadigan har bir lisoniy yoki nolisoniy sistema birliklari verbal va noverbal aktlarni hosil qilish bilan birga, so'zlashuvchilar shaxsiga doir xususiyatlarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Bu har qanday til sistemasida mavjud bo'lib, o'sha tilga mansub barcha aktlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday tilda o'sha millatning urf-odati, milliy qadriyatlari, madaniyati aks etadi.<sup>2</sup> Shu gapga misol tariqasida, *O'sha kuni oyingiz bor-yo'g'i ikki og'iz so'z aytdilar. Menga tikilib turib, qishloqqa buni olib ketolmaysan, bu qiz juda nozik ekan-ku!- dedilar. Keyin sizga qarab: "Bo'yningizni qismang, o'g'lim. Yigit kishi boshini ko'tarib yuradi!" dedilar.* (Omon Matjon)

Bizga ma'lumki, inson ayb ish qilsa, bu ayb oshkor bo'lsa, insonning boshi pastga qaraydi. Natijada yonidagi insonlar ko'ziga qaray olmaydi. Bu esa, o'zbeklarning uyat va madaniyati bilan bog'liq. O'ziga qiz yoqmaganligi, uni qishloqqa olib bora olmasligi yigitni onasi oldida bosh egishiga sabab bo'lgan. Xalqimizning azaldan "yigit kishining boshi egilmasin" degan gaplari bejiz emas.

*Qachongacha chilla o'tiraman, deb kampir bugun qizirikiga o'tlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako'z ostonaga borib o'tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bormagan Qorako'z o'zida yoq shod edi. Boshini bir tomonga egib irg'ishlar tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoz chiqarib g'ingshirdi.* (Said Ahmad "Qorako'z Majnun")

*Navoiy g'amgina, g'azabli podshohga dadil qarab, hol-ahvol so'radi. Husayn Boyqaro Hirotdanchopar kelganini aytib, jig'ali boshini allaqanday ma'nodor silkib, ahvolning og'irligini ifodaladi.* (Oybek "Navoiy" romani) Bu gapda boshning ma'nodor silkishi o'sha paytdagi urush, uning oqibatlari va bundan shohning xafaligi yurt uchun qayg'urayotgani bilinib turadi.

O'zbeklar muloqotida qo'llaniladigan til vositalari umumiy ma'noda boshqa xalqlarnikiga o'xshasa-da, unda milliy madaniyat aks etib turadi. Shu bilan birga, bu

<sup>2</sup> Burhanova Mashhura Muhammad qizi. "Kreolizativ matnlarning paralingvopoetik tadqiqi." Farg'ona. 2022

vositalarning qo'llanilishida ham ayollar va erkaklar nutqida turli xildadi so'zlar imo-ishoralarda o'zgacha farq va tafovut sezilib turadi.

Nemis olimi Aybl-Aybesfeldt tug'ma kar yoki ko'r bolalarda ko'rish qobiliyati hech qanday ta'limsiz yoki nusxa ko'chirishlarsiz namoyon bo'lishi, bu 23 esa tug'ma ekanligi haqidagi farazni tasdiqlashini aytadi. Ekman, Frizen va Zorezan kabi olimlar Ch.Darvin tomonidan ta'kidlangan imo-ishoralarning tug'maligi haqidagi taxminlarni beshta bir-biridan madaniyati bo'yicha tubdan farq qiladigan millat vakillarining yuz ifodalarini o'rganib tasdiqlagan. Ular har xil madaniyat vakillari ma'lum emotsiyalarni namoyon qilishda yuzning bir xil ifodalaridan foydalanishlari, bu esa tadqiqotchilarga ushbu imo-ishoralar tug'ma bo'lishi kerak, deb xulosa qilish imkonini berishini tasdiqladi.<sup>3</sup>

Aksariyat noverbal vositalar o'zlashtirilgan bo'ladi va ko'p tana harakatlari, imo-ishoralarning ma'nosi madaniy shartlangandir. Xususan, "Islom dini ta'sirida iffat va hayo ruhida tarbiya topgan o'zbek ayollari qator noverbal xatti-harakatlari, jumladan, so'zlashayotgan paytda kommunikantlar, ayniqsa, nomahramlar yuziga tik boqib gapirmaslik va tinglamasliklari bilan alohida ajralib turadi. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida hech qachon bironing yuziga tik boqmagan, har qanday holatda iffat va hayoni unutmagan Kumushbibining ko'zlari hatto so'nggi nigohda – o'lim iskanjasida ham hayo va uyalish hissini o'zidan qochirmaydi:

" – Oyi...dada... – so'ngra, begim, – deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalg'ansumon ko'zini yumdi..." (A.Qodiriy) .<sup>4</sup>

Axborot uzatishning his-tuyg'ular tili nafaqat so'z bilan parallel ravishda, balki, tilsiz holda – xitob, yig'lash, qahqaha va kulgu shaklida ham ishlatilishi mumkin. Ular his-tuyg'ular tilining yuz mushaklarining harakati (yuz ifodalari), bosh, oyoq va tananing harakatlari (pantomimika)ni o'z ichiga olgan ta'sirchan harakatlardir. His-tuyg'ular erkin va ba'zan insonning irodasiga qarshi, yuz ifodalarida va pantomimikada avtomatik ravishda aks ettiriladi hamda insonning holatini ko'rsatadi. *U ishini xontaxta ustiga qo'yib, ko'zimga tanali qaradi. Chiroyli ko'zlarida "shu gapni siz aytayapsizmi?"degan ma'no bor edi.* (O'.Hoshimov)

*-Nima sen? Senga nima bo'пти, qizim? Hali o'ng gulingdan... Robiya "voy,sodda oyim-a" degandek kulimsiradi. – Men bormanku, dedi sekin. – Men tirikman-ku! Bundan chiqdiKimsan akam ham tiriklar. – U gap tamom degandek yana qatim tortishga tushdi.*(O'Hoshimov)

Dunyoning aksar millatlarida va o'zbeklarda ham "boshni tepadan pastga silkitish" biror fikrni ma'qullash, tasdiqlash yoki "ha" deb javob berish hisoblanadi.

*-Keyin ma'limga shunaqangi uy sobberaylikki, ko'rgan adamning og'zi ochilib qolsin. Tushindingmi? Pakana kishi "ma'qul" degandek bosh irg'adi.* (O'.Hoshimov)

<sup>37</sup> Пиз А. Язык телодвижений // <https://booksonline.com.ua/view.php?book=168970>

<sup>4</sup> B.R.Ahmedov "Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi"

Boshning gorizontal harakati” esa inkorni yoki “yo‘q” ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek millati ham bundan mustasno emas. Xususan, o‘zbeklarda inkor ifodalovchi kinetik vositalar sifatida “bosh, qo‘l va qisman lab harakatlaridan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, paralingvistik vositalar nutqni ixchamlashtirishga va uni adresatga ta’sir darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, paralingvistika lingvomadaniyatning ajralmas qismi hamdir. U madaniyatning bir qismi sifatida sayqallanib boraveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nurmonov N. A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari. Andijon. 1980 yil.
2. A.Nurmonov.Tanlangan asaralar,3 jildlik.Toshkent,2001 –yil.
3. Nosirjon Uluqov.Tilshunoslik Nazariyasi,Toshkent-2016-yil.
4. B.R.Ahmedov “Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi”. Andijon. 2021.
5. Oybek. “Navoiy” romani.
6. O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi” T.Sharq. 2008
7. Burhanova Mashhura Muhammad qizi. “Kreolizativ matnlarning paralingvopoetik tadqiqi.” Farg‘ona. 2022.